

**INSONPARVARLIK PEDAGOGIKASI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat  
yo'nalishi 9JM 23 guruh talabasi  
Abdusalomov Hojiakbar*

**Tezis:** Insonparvarlik pedagogikasi talaba va o'quvchilarni mustaqil shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan yondashuv bo'lib, unda o'quvchining qobiliyatlarini, qiziqishlari va ehtiyojlari e'tiborga olinadi. Bu yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, hamkorlik, muloqot va hurmat asosida shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishni maqsad qiladi.

Asosiy tamoyillar:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim:

O'quvchilarning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil qilish.

2. Hurmat va hamkorlik:

Pedagog va talaba o'rtaida teng huquqli va hurmatli munosabatlarni shakllantirish.

3. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish:

O'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish.

4. Shaxsiy ehtiyojlarni inobatga olish:

Har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlarini tushunish va unga mos ta'lim shakllarini joriy etish.

Rivojlantirishning assosiy yo'nalishlari:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviyatga urg'u berish:

Yosh avlodni axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash.

2. O'quv muhitini insonparvarlik asosida yaratish:

Ta'lim muassasalarida qo'llab-quvvatlash va do'stona muhitni ta'minlash.

Insonparvarlik pedagogikasining tarixiy asoslari .Insonparvarlik pedagogikasi qadim zamonlardan buyon rivojlanib kelayotgan ta'lim yo'nalishidir. U quyidagi tarixiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya g'oyalari:

Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobi va boshqa mutafakkirlarning inson qadriyatları haqidagi fikrlari.

Insonning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy javobgarlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar.

2. G'arb pedagogikasi:

Yan Amos Komenskiy, Jan-Jak Russo va Lev Tolstoyning insonparvarlik tamoyillari.

Har bir o‘quvchining tabiiy qobiliyatlariga hurmat bilan yondashish va rivojlantirish.

Insonparvarlik pedagogikasi tamoyillari

1. Shaxsiy qadr-qimmatni e’tirof etish:

Har bir shaxs o‘ziga xos qobiliyatga ega, va bu qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogikaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

2. O‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchanlik:

Ta’lim jarayonini o‘quvchining imkoniyatlariga mos ravishda tashkil qilish

3. Faol muloqot:

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va ochiq muloqot asosida munosabatlarni shakllantirish.

4. Ma’naviy tarbiya:

O‘quvchilarga insoniylik, mehr-shafqat, halollik va javobgarlik kabi ma’naviy qadriyatlarni singdirish.Insonparvarlik pedagogikasining zamonaviy yondashuvlari

1. Interaktiv texnologiyalarni qo‘llash:

Darslarda onlayn platformalar, vizual va multimedya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.Yangi o‘quv materiallarini muhokama qilishda guruhli ishslash metodlarini qo‘llash.

2. Emosional intellektni rivojlantirish:Insonparvarlik pedagogikasi doirasida o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. Inkluziv ta’lim:Har xil ehtiyoj va qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish.

**Xulosa:** Insonparvarlik pedagogikasi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har bir shaxsning qadr-qimmatini e’tirof etish va uning imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy yetuklik va ijodkorlikni shakllantiradi.Insonparvarlik pedagogikasi talim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hurmatga asoslangan hamkorlikni rivojlantiradi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan, insoniy fazilatlarga ega shaxslarni tarbiyalashga yordam beradi.

Kelajakda insonparvarlik tamoyillarini ta’limning barcha bosqichlarida tatbiq etish ta’lim sifatini oshirish va jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi.

### **Ishlatilgan adabiyotlar**

1. Abdullaeva X., Usmonova G. "Pedagogika asoslari", Toshkent: "O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2020.

2. Sodiqova R. "Pedagogik texnologiyalar", Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018.
3. Komenskiy Y.A. "Buyuk didaktika", Toshkent: "O'qituvchi", 1989.
4. G'ulomov Sh., Normatov H. "Ta'lif va tarbiya nazariyasi", Toshkent: "Fan", 2017.
5. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-Qulub", Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi", 2010.
6. Farobiy A.N. "Fozil odamlar shahri", Toshkent: "O'qituvchi", 1993.
7. Rasulova M., Toshpulatov R. "Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliyoti", Toshkent: "Ilm ziyo", 2021.
8. Dewey J. "Democracy and Education", New York: Macmillan, 1916.
9. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva: "Prosvetshchenie", 1991.
10. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig", Toshkent: "Sharq", 2012.